| SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO AYLANMASI HAJMI<br>KO'RSATKICHLARINI ARIMA MODEL YORDAMIDA PROGNOZLASHTIRISH.....                                | 571 |
| Qudratova Shahnoza Shuhrat qizi                                                                                                                                         |     |
| XO'JALIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                                           | 579 |
| Valijonov Akmaljon                                                                                                                                                      |     |
| XIZMATLAR IQTISODIYOTI VA UNI RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                                                                    | 584 |
| Abduxoliqova Farangiz Abduxoliq qizi                                                                                                                                    |     |
| O'ZBEKISTONDA TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMI: HOZIRGI HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH<br>ISTIQBOLLARI.....                                                                | 588 |
| Kuvandikov Shuxrat Oblokulovich, Abduxalikova Komila Abduxalikovna                                                                                                      |     |
| ИНТЕГРАЦИЯ МЕТОДОВ КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ ПО ВИДАМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (АВС) И ЦЕЛЕВОГО<br>КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ (ТС) КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ<br>УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА ..... | 595 |
| Киличева Ф.Б.                                                                                                                                                           |     |
| GAZ TARMOQLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI<br>BAHOLASH.....                                                                                   | 601 |
| Xamidov Xayriddin Faxritdinovich                                                                                                                                        |     |
| SOLIQ NAZORATI TIZIMI: IQTISODIY MOHIYATI, SHAKLLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH<br>YO'LLARI.....                                                                       | 606 |
| Donaboyev Dostonbek Xusan o'g'li                                                                                                                                        |     |
| УПРАВЛЕНИЕ ПРИБЫЛЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ЕГО ФИНАНСОВОЙ<br>ЭФФЕКТИВНОСТИ .....                                                                                  | 610 |
| Агзамов Авазхон Талгатович, Алиева Сусанна Сейрановна                                                                                                                   |     |
| NOBANK KREDIT TASHKIOTLARINING AKTIV OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING<br>DOLZARB MASALALARI .....                                                                    | 618 |
| Sardor Karimov Boydulla o'g'li                                                                                                                                          |     |
| INVESTITSION JOZIBADORLIKNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSIYA NAZARIYALARI<br>INTEGRATSIYASI .....                                                                   | 624 |
| Abdullayeva Nilufar Ruslanovna                                                                                                                                          |     |
| QURILISH KORXONALARINI KORPORATIV QIMMATLI QOG'OZLAR ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING<br>ILG'OR XORIJ TAJRIBASI VA UNI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....                           | 630 |
| Igitov Jurabek Kuzibekovich                                                                                                                                             |     |
| OPEN BANKING AS A DRIVER OF FINANCIAL INNOVATION AND INCLUSION IN UZBEKISTAN'S<br>BANKING SECTOR.....                                                                   | 637 |
| Kuvatova Oliy Sheraliyevna, Asadbek Ergashov                                                                                                                            |     |
| TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BOSHQARISH VOSITALARI .....                                                                                              | 642 |
| Sadikov Q.M.                                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| BOSHQARUV HISOBIDA NARX SHAKLLANISHINING NAZARIY JIHATLARI (TOVAR BOZORIDA USTUN MAVQEGA EGA XO'JALIK SUBYEKTLARI MISOLIDA).....                    | 646 |
| <b>Xaitmetov Elmurat Sidikmatovich</b>                                                                                                              |     |
| ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ВВП НА ОСНОВЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ .....                                                                        | 652 |
| <b>Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.</b>                                                                                                                |     |
| XALQARO LOYIHALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI INTEGRATSIYA YETUKLIGI MODEL VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....                               | 659 |
| <b>Ne'matova Bonura Umid qizi</b>                                                                                                                   |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDITNING MOHIYATI, MAQSADI VA ASOSIY VAZIFALARI .....                              | 664 |
| <b>Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich</b>                                                                                                            |     |
| OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....                                          | 674 |
| <b>Xusanova Gavhar</b>                                                                                                                              |     |
| MAHALLIY SHAROITDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI KO'P MEZONLI BAHOLASHNING IQTISODIY YO'NALTIRILGAN GIBRID MODEL VA UNING AMALIY QO'LLANILISHI..... | 679 |
| <b>Mirzayeva Shaxnoza Mamat qizi</b>                                                                                                                |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYALARINING HOLATI VA O'RNATILGAN QUVVATLARINI TAHLIL QILISH .....                                | 683 |
| <b>Maxamadiyev Farrux Mirazimovich, Baratov Laziz Suyun o'g'li</b>                                                                                  |     |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING NAZORATINI TASHKIL QILISH.....                                                             | 688 |
| <b>Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Dadaboyev Abdurahmon Ne'matjon o'g'li</b>                                                                     |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI .....                                                   | 693 |
| <b>Yusubov Inomjon Ikrom o'g'li</b>                                                                                                                 |     |
| MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY JIHATLARI .....                                                                   | 699 |
| <b>Narzulloev Behruz Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                            |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI .....                                                                      | 702 |
| <b>Kazakbayev S.B.</b>                                                                                                                              |     |
| BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....               | 705 |
| <b>Sattorov Orifjon Boymurodovich</b>                                                                                                               |     |
| MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....                              | 709 |
| <b>Alimov Baxodir Batirovich</b>                                                                                                                    |     |
| QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....          | 718 |
| <b>Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich</b>                                                                                                            |     |
| MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....                               | 724 |
| <b>Berkinov Bozorboy Berkinovich</b>                                                                                                                |     |
| XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI .....                                         | 728 |
| <b>Fayyoza Xalimova Nafasovna</b>                                                                                                                   |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....                                 | 733 |
| <b>Azimov Asrorjon Muzaffarjonovich</b>                                                                                                             |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI .....                                                  | 737 |
| <b>Xalimbetov Farxad Bagibekovich</b>                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLAR.....                                                                            | 742 |
| Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li                                                                                                         |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI YALPI HUDUDIIY MAHSULOT XAJMIGA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARNING TA'SIRI .....                | 749 |
| Sultanov Anvar Abdullaevich                                                                                                               |     |
| YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA QURILISH SANOATINING IQTISODIY HOLATI.....                                                          | 754 |
| Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li                                                                            |     |
| DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR .....                   | 760 |
| Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li                                                                                                        |     |
| MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT .....                                  | 764 |
| Mamatkulova Shoir Djalolovna                                                                                                              |     |
| РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....                      | 769 |
| Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.                                                                                                   |     |
| ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....                                    | 774 |
| Айматова Фарида Хуразовна                                                                                                                 |     |
| XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII .....                                              | 778 |
| Xomidova Kamola G'olib qizi                                                                                                               |     |
| SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILİYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....               | 783 |
| Xattabov Murodulla Batirovich                                                                                                             |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI .....                                                              | 788 |
| Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                               | 795 |
| Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich                                                                                                       |     |
| ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....                                                      | 803 |
| Ишонкулова Феруза Асатовна                                                                                                                |     |
| CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....                               | 808 |
| Sadinov Aziz Ziyadullayevich                                                                                                              |     |
| BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI .....                                                                          | 814 |
| Radjapova Latofat Sardorovna                                                                                                              |     |
| MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI .....                                                                  | 821 |
| Abdullayeva Madina Kamilovna                                                                                                              |     |
| UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI .....                | 827 |
| Nigmatov Akbarjon Anvarovich                                                                                                              |     |
| TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH .....                                                                                          | 831 |
| Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li                                                                    |     |
| DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRIPA TAJRIBASI .....                        | 837 |
| Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li                                                                                                      |     |
| RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHLATLARI..... | 842 |
| Nozimov Eldor Anvarovich                                                                                                                  |     |
| MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI .....                 | 847 |
| Sobitova Ra'no Solidjonovna                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                                |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ<br>TAJRIBALARI.....                                           | 850 |
| Raxmonov Aziz Iskandarovich                                                                                                                    |     |
| COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....                                                                                    | 855 |
| Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli                                                                                                             |     |
| OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI..... | 861 |
| Butayev Dilshod Eshbekovich                                                                                                                    |     |
| ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ<br>ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....                                    | 867 |
| Бозорова Озода Рахимовна                                                                                                                       |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI<br>TAHLILI .....                                                   | 872 |
| Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi                                                                                                              |     |
| XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR<br>UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....                                      | 877 |
| Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li                                                                                                              |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH<br>IMKONIYATLARI.....                                              | 882 |
| Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li                                                                                                            |     |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                               | 888 |
| Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li                                                                                                                |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING<br>AMALDAGI HOLATI.....                                       | 894 |
| Usmonov Shavkatjon Shukurovich                                                                                                                 |     |
| АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ<br>СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ .....                                          | 901 |
| Абилов Эльман Худаверди оглы                                                                                                                   |     |
| QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY<br>TAHLIL.....                                                   | 906 |
| Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich                                                                                                            |     |
| TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI<br>XUSUSIDA.....                                             | 914 |
| Hakimov Odil Arziqulovich                                                                                                                      |     |
| RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN<br>INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI .....              | 918 |
| Xoshimov Sobir Murtazayevich                                                                                                                   |     |
| KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION<br>YONDASHUVLARI .....                                               | 925 |
| Xalilova Aziza Rustamovna                                                                                                                      |     |
| QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI<br>BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....                    | 930 |
| Uzakova Umida Ruziyevna                                                                                                                        |     |
| INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY<br>MAZMUNI.....                                                      | 936 |
| Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna                                                                                                                   |     |



# INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI

**Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna**

Qarshi Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

[shamsiyevaruxsora190@gmail.com](mailto:shamsiyevaruxsora190@gmail.com)

ORCID: 0009-0004-9871-4710

**Annotatsiya.** Maqolada hududiy rivojlanishni jadallashtirishda investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining iqtisodiy mazmuni va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida hududiy investitsiya siyosatini shakllantirishda qo'llaniladigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, ularning tarkibiy elementlari hamda investitsion muhitni rivojlantirishga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, hududlar raqobatbardoshligini oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi, infratuzilma rivojlanishi hamda institutsional sharoitlarni takomillashtirishning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari hududiy investitsiya siyosatini yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, hududiy rivojlanish, investitsion muhit, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, hududiy siyosat, raqobatbardoshlik.

**Abstract.** The article analyzes the economic content and practical significance of investment attraction mechanisms aimed at accelerating regional development. The study examines the organizational and economic mechanisms used in the formation of regional investment policy, their structural components, and their role in improving the investment climate. It also substantiates the importance of public-private partnership, infrastructure development, and institutional enhancement in strengthening regional competitiveness. The research findings contribute to the development of practical recommendations for further improving the effectiveness of regional investment policy.

**Key words:** investment, regional development, investment climate, organizational and economic mechanism, regional policy, competitiveness.

**Аннотация.** В статье проанализированы экономическое содержание и практическая значимость механизмов привлечения инвестиций в целях ускорения регионального развития. В ходе исследования раскрыты организационно-экономические механизмы формирования региональной инвестиционной политики, их структурные элементы, а также их влияние на развитие инвестиционной среды. Кроме того, научно обоснована роль государственно-частного партнёрства, развития инфраструктуры и совершенствования институциональных условий в повышении конкурентоспособности регионов. Результаты исследования направлены на разработку практических рекомендаций по дальнейшему развитию и повышению эффективности региональной инвестиционной политики.

**Ключевые слова:** инвестиции, региональное развитие, инвестиционная среда, организационно-экономический механизм, региональная политика, конкурентоспособность.

## KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va iqtisodiy raqobatning kuchayib borishi sharoitida investitsiyalar hududlar iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlari ko'p jihatdan investitsiya faolligi darajasi bilan uzviy bog'liq. Xususan, so'nggi yillarda dunyo miqyosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi global iqtisodiy jarayonlar ta'sirida o'zgaruvchan tendensiyaga ega bo'lib, investitsiya resurslarining hududlar o'rtasida taqsimlanishida raqobat omili ortib bormoqda. Bu esa hududlarda qulay investitsion muhitni shakllantirish va investitsiyalarni samarali jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

O'zbekiston misolida ham investitsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda mamlakatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi qariyb



269 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 300 trillion so'mdan oshgan, 2024-yilda esa investitsiyalar hajmi 350 trillion so'mga yaqinlashgan. Ushbu ijobiy dinamika mamlakatda investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, investitsiya oqimlarining hududlar kesimidagi taqsimotida muayyan farqlar kuzatiladi. Jumladan, poytaxt shahri va sanoat salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda investitsiya ulushi nisbatan yuqori bo'lsa, agrar yo'nalishdagi ayrim hududlarda investitsiya faolligini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud. Hududlar kesimida investitsiyalar ulushining farqlanishi iqtisodiy o'sish sur'atlari, bandlik darajasi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va hududiy iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, sanoat infratuzilmasi rivojlangan hududlarda investitsiyalardan foydalanish samaradorligi yuqoriroq bo'lib, bu ishlab chiqarish hajmining kengayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda byudjet tushumlarining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda. Shu bois investitsiyalarni jalb etishning hududiy mexanizmlarini ilmiy asosda shakllantirish, ularning iqtisodiy mazmunini chuqur tahlil qilish hamda investitsiya siyosatining hududiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy investitsiya siyosatining nazariy asoslari V. M. Kruglyakova [1] tadqiqotlarida tizimli yondashuv asosida yoritilgan bo'lib, unda investitsiya mexanizmi hududning iqtisodiy salohiyati, infratuzilma darajasi hamda institutsional muhit bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks tizim sifatida talqin etiladi. Muallif hududlarning o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial investitsiya siyosatini amalga oshirish zarurligini ilmiy asosda asoslab beradi. Ushbu yondashuv hududiy resurslardan samarali foydalanish va investitsiya faolligini oshirishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Hududlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarining amaliy jihatlari L. B. Kostrovets va A. S. Golodnik [2] ilmiy ishlarida atroflicha ko'rib chiqilgan. Ularning tadqiqotlarida investitsiya jarayonining samaradorligi strategik rejalashtirish, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash hamda investitsiya loyihalarini monitoring qilish tizimi bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlangan. Mualliflar investitsiya mexanizmini hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash va hududiy rivojlanishni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasi sifatida baholaydilar.

Davlatning investitsiya va innovatsion siyosatini o'zaro uyg'un holda amalga oshirish masalalari N. D. Shimshirt [3] tadqiqotlarida keng yoritilgan. Muallif investitsiya mexanizmlarini hududiy raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv investitsiya siyosatini uzoq muddatli strategik rivojlanishning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi hamda hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalarning ustuvor ahamiyatini asoslab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda hududiy investitsiya mexanizmlarining iqtisodiy mazmuni va samaradorligini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali hududiy investitsiya mexanizmlarining tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Statistik tahlil usuli yordamida 2020–2024-yillar davomida hududlar kesimida investitsiyalar hajmi, hududiy yalpi mahsulot, bandlik darajasi va byudjet tushumlari dinamikasi tahlil qilindi.

Shuningdek, taqqoslash usuli asosida investitsiya faolligi yuqori va past bo'lgan hududlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zaro solishtirildi. Mantiqiy umumlashtirish usuli orqali hududiy investitsiya mexanizmlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlar va analitik materiallardan foydalanildi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy investitsiya mexanizmi — bu investitsiya resurslarini muayyan hududlarga samarali yo'naltirishni ta'minlovchi tashkiliy, iqtisodiy va institutsional chora-tadbirlar majmuasidir. Mazkur mexanizm hududlarning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari va innovatsion rivojlanish omillaridan samarali foydalanishga qaratilgan. Ilmiy adabiyotlarda hududiy investitsiya mexanizmi investitsion muhitni shakllantirish, hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv vositasi sifatida e'tirof etiladi.



Hududiy yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u har bir hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda investitsiya siyosatini moslashuvchan va maqsadli tarzda amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa hududlarning mavjud salohiyatidan to'liq foydalanish, investitsiya samaradorligini oshirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Investitsiyalarni jalb etishning hududiy mexanizmlari, odatda, bir nechta asosiy tarkibiy elementlardan iborat bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liq holda hududiy investitsiya faolligini rag'batlantirish va investitsiya muhitini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Investitsiya jalb qilishning hududiy mexanizmlari

Mazkur mexanizmlar o'zaro uyg'unlashgan holda faoliyat yuritganda hududning investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshadi. Hududiy investitsiya mexanizmlarining iqtisodiy mazmuni ularning kapitalni jalb qilish orqali hudud iqtisodiyotida qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik yangilanishlarni joriy etish hamda mahsulot tannarxini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur mexanizmlarning iqtisodiy mazmuni quyidagi asosiy jihatlar orqali ifodalanadi:

- hududiy yalpi mahsulot hajmining barqaror o'sishi;
- bandlik darajasining ortishi va aholi daromadlarining ko'payishi;
- mahalliy byudjet tushumlarining mustahkamlanishi va moliyaviy barqarorlikning oshishi.

Shu bilan birga, investitsiya mexanizmlari iqtisodiy tizimda multiplikativ ta'sirni yuzaga keltirib, ularning natijalari uzoq muddatli rivojlanish jarayonlarida yaqqol namoyon bo'ladi [5].

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni jalb etishning hududiy mexanizmlari mintaqaviy iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Jumladan, 2020–2024-yillar davomida investitsiya faolligi yuqori bo'lgan hududlarda hududiy yalpi mahsulot o'sish sur'atlari o'rtacha 6,8–7,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, investitsiya hajmi nisbatan past bo'lgan hududlarda ushbu ko'rsatkich 4,1–4,8 % atrofida shakllangan. Statistika tahlil natijalari investitsiya hajmining 1 % ga oshishi hududiy yalpi mahsulot hajmining o'rtacha 0,32–0,45 % ga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bu esa investitsiya mexanizmlarining iqtisodiy o'sish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bandlik darajasi va aholi daromadlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, asosiy kapitalga yo'naltirilgan har 1 mlrd so'm investitsiya hisobiga o'rtacha 18–25 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Natijada investitsiya faolligi yuqori hududlarda bandlik darajasi 2,3–3,1 foiz punktga oshgan, real aholi daromadlari esa yiliga o'rtacha 9–11 % ga ko'paygan. Bu holat investitsiya mexanizmlarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Mahalliy byudjet tushumlari dinamikasi ham investitsiya faolligi bilan uzviy bog'liqligi aniqlangan. Investitsiya loyihalari amalga oshirilgan hududlarda mahalliy byudjet daromadlari o'rtacha 12–18 % ga oshgan. Byudjetning o'zini o'zi moliyalashtirish darajasi 0,78 dan 0,91 gacha ko'tarilgan bo'lib, bu hududlarning moliyaviy salohiyati mustahkamlanganini ko'rsatadi. Yangi tashkil etilgan sanoat va xizmat ko'rsatish subyektlari hisobiga soliq bazasi kengaygan va hududiy moliyaviy barqarorlik kuchaygan.

Investitsiya mexanizmlarining multiplikativ ta'siri alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Hisob-kitoblar natijasiga ko'ra, iqtisodiyotga kiritilgan har bir birlik investitsiya o'rtacha 1,6–2,2 birlik qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratishga xizmat qilgan. Ayniqsa, infratuzilma va ishlab chiqarish sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarda multiplikator koeffitsienti 2,0 dan yuqori darajada shakllangan. Bu esa investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida keng qamrovli va uzoq muddatli ijobiy ta'sirga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, investitsiya mexanizmlarining samaradorligi boshqaruv sifati va institutsional muhit darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlangan. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy etilgan hududlarda investitsiya loyihalarini ro'yxatdan o'tkazish muddati 30–40 % ga qisqargan, ma'muriy xarajatlar 15–20 % ga kamaygan hamda xususiy investitsiyalar ulushi 8–12 foiz punktga oshgan. Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalarda kapital qo'yilmalarning 35–50 % i xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan va loyihalarning rentabellik darajasi o'rtacha 14–18 % ni tashkil etgan.



Umuman olganda, investitsiyalarni jalb etishning hududiy mexanizmlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlik darajasini oshirish, mahalliy byudjet barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish orqali mintaqaviy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat moliyaviy resurs manbai, balki hududiy iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasini ta'minlovchi strategik rivojlanish instrumenti hisoblanadi.

Ilmiy nuqtai nazardan, investitsiya mexanizmi iqtisodiy tizimning rivojlanishiga turtki beruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Institutsional muhitning barqarorligi, boshqaruv tizimining samaradorligi va iqtisodiy shaffoflik darajasi yuqori bo'lgan sharoitda investitsiyalar yanada yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi va hududiy rivojlanishning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiyalarni jalb etishning hududiy mexanizmlari hududlar iqtisodiy rivojlanishining muhim strategik asoslaridan biri hisoblanadi. Ularning iqtisodiy mazmuni investitsiya oqimlari orqali hududlarda qo'shilgan qiymat yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, investitsiyalarning tarmoqlar va hududlar kesimida oqilona taqsimlanishi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish muvozanatini ta'minlash va mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hududiy investitsiya mexanizmlarini yanada rivojlantirish ilmiy asoslangan yondashuvlarni keng joriy etishni, samarali institutsional muhitni shakllantirishni hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashni talab etadi. Xususan, ishlab chiqarish va transport infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiya faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya risklarini samarali boshqarish hamda hududiy strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish investitsiya samaradorligini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Mazkur mexanizmlarning izchil va kompleks asosda amalga oshirilishi mamlakat miqyosida hududlararo mutanosib rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish hamda uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Takliflar sifatida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- hududlarning investitsiya salohiyatini baholash asosida differensial investitsiya siyosatini amalga oshirish;
- hududlarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini kengaytirish;
- investitsiya jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va zamonaviy monitoring tizimlarini keng joriy etish;
- investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish orqali xususiy investitsiyalar ulushini oshirish;
- hududiy investitsiya strategiyalarini uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirish.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Круглякова В. М. Региональная инвестиционная политика: теоретико-методологические основы, методическое и инструментальное обеспечение: дисс. ... д-ра экон. наук. – Москва, 2003. – 350 с.
2. Костровец Л. Б., Голодник А. С. Механизм развития инвестиционной деятельности в регионе. // Экономика региона. – 2010. – № 3. – С. 45–52.
3. Шимширт Н. Д. Современная инвестиционная и инновационная политика государства: учебное пособие. – Томск: Издательство Томского государственного университета, 2012. – 198 с.
4. Xujamkulov D. Y. Erkin iqtisodiy hududlar: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 335 b.
5. Voxidova M. X. Erkin iqtisodiy hududlar: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 40 b.
6. Nazarova G'. G', Xalilov X. X. va boshqalar. Erkin iqtisodiy hududlar. – Toshkent, 2011. – 17 b.
7. Jabborova Z. A. Turizmni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanish. // Innovatsion iqtisodiyot. – 2025. – Tom 1, № 1. – B. 369–375.
8. Qurbonova M. A. A new methodology for developing green tourism exports using digital technologies. // Green Economy and Development Journal. – 2025. – No. 3.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 2

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>